

SUN'IY INTELEKTNING INGLIZ TILINI O'RGANISH VA O'QITISHGA TA'SIRI

Xayrullayeva Sevara O'tkir qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti Narpay xorijiy

tillar fakulteti 2-bosqich talabasi

sevarakhayrullayeva2004@gmail.com

+998 940471615

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sun'iy intellektning bugungi kunda tutgan o'rni, uning ingliz tilini o'rganish jarayonidagi ahamiyati haqida, hamda uning bu jarayondagi imkoniyatlari va kamchiliklari haqida ma'lumotlar beriladi.*

Аннотация: *В статье представлена информация о роли искусственного интеллекта сегодня, его значении в процессе изучения английского языка, а также его возможностях и недостатках в этом процессе.*

Abstract: *This article provides information about the role of artificial intelligence today, its importance in the process of learning English, and its capabilities and shortcomings in this process.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, Siri, Alexa, Netflix, YouTube, Duolingo, Babbel, Grammarly*

Dolzarbliqi: Bugungi kunda til o'rganish va boshqa ko'plab sohalarda axborot texnologiya vositalaridan foydalanish ko'lamini kengayib bormoqda. Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining ingliz tilini o'rganish va o'qitishga ta'siri dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi, chunki bu sohadagi rivojlanish til o'rganish jarayonlarini yanada samarali va osonlashtiradi va boshqa sohalar uchun ham muhim ahamiyatga egadir.

Bugungi har tomonlama shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda ta'lim tizimini takomillashtirish sohasida qo'l keladigan ko'plab texnologiyalar paydo bo'lmoqda. Ushbu texnologiyalar va texnologik tizimlar nafaqat ta'lim sohasida balki boshqa ko'plab sohalarda asosiy faoliyat yurituvchi yordamchi vositalarga aylanib ulgurdi desam mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, biznes, marketing, ta'lim, tibbiyot, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqa ko'plab sohalardagi innovatsion texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ular yordamida ish unumdorligi oshirish, vaqtni tejash, ilg'ori innovatsion g'oyalarini ishlab chiqish, tezkor axborot resurlariga va boshqa ko'p tomonlama qulayliklarga ega bo'lish mumkin.

Barchaga ma'lumki, ingliz tilini o'rganish butun dunyo miqyosida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonlarda mutaxassislar ko'plab zamonaviy va qulay tizimlar, oson va tushunarli o'qitish metodlarini ishlab chiqishgan. Insoniyat

yaralibdiki, soddalikka intiladi, yangiliklar o'ylab topadi. Ana shunday yangiliklardan biri bu sun'iy intellekt(AI) hisoblanadi. Sun'iy intellekt nima o'zi? Uning ingliz tilini o'rganish jarayoniga qanday ta'siri bor? - degan savollar paydo bo'lishi tabiiy hol. Sun'iy intellekt (SI) – bu kompyuter tizimlarining inson aqliga xos vazifalarni bajarish qobiliyati bo'lib, ularga o'rganish, mantiqiy fikrlash, muammoni hal qilish, nutqni tushunish va qaror qabul qilish kabi imkoniyatlarni beradi. U matematik algoritmlar va dasturiy ta'minot yordamida amalga oshiriladi. Sun'iy intellektning asosiy maqsadi – inson faoliyatini yengillashtirish va yanada samarali qilishdir. Shu bilan birgalikda, virtual yordamchilar (masalan, Siri yoki Alexa), reklama algoritmlari va tafsiyalar tizimi (Netflix yoki YouTube'da), tibbiyotda diagnostika va robotlashtirilgan jarrohlik va boshqa sohalaridagi maxsus ilovalariga ega. Qo'shimcha ravishda, sun'iy intellekt (SI) hozirgi kunda ingliz tilini o'rganish va o'qitishda keng qo'llanilayotgan innovatsion vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiya ta'lim jarayonlarini yanada qulay, interaktiv va individuallashtirilgan shaklga keltirishga yordam bermoqda. Undan tashqari, sun'iy intellektning ingliz tilini o'rganishda quyidagi qulayliklari mavjud : sun'iy intellekt yordamida ishlab chiqilgan o'quv platformalari va dasturlar til o'rganuvchilar uchun yangi imkoniyatlarni ochadi, Duolingo, Babbel kabi dasturlar foydalanuvchilarning bilim darajasini aniqlab, individual o'quv rejalarini taqdim etadi, SI ovozni aniqlash algoritmlari yordamida talaffuzni to'g'ri baholaydi va takomillashtirish uchun takliflar beradi, Grammarly kabi vositalar matnning grammatik to'g'riligini tahlil qilib, aniqlangan xatolarni to'g'rilashni taklif etadi. Bu imkoniyatlar orqali o'quvchilar o'z ehtiyojlariga ko'ra ingliz tilini shaxsiy o'rganishi, o'ziga mos o'quv dasturlariga ega bo'lishlari mumkin. Bundan tashqari SI vositalari foydalanuvchilarga o'z xatolarini darhol ko'rsatadi va ularni to'g'irlash bo'yicha maslahatlar beradi. Testlarni avtomatlashtirilgan baholash, o'quv materiallarini yaratish va sinf boshqaruvini yengillashtirish orqali SI o'qituvchilarning vaqtini tejaydi.

Ingliz tilini o'rganish - murakkab va qiziqarli jarayondir. Bunda o'rganuvchi nafaqat o'sha til haqida ma'lumotlar, balki o'sha tilda so'zlashadigan xalqlarning madaniyati, urf-odatlar va dunyoqarashini ham o'rganib boradi. Bu borada sun'iy intellekt ilovalari judayam samarali bo'ladi. Misol uchun, YouTube platformasi orqali, ma'lum bir davlatga yoki millatga xos bo'lgan bayramlar, an'analar va boshqa marosimlarini ko'rish imkoniyati mavjud. Xattoki, dunyoning bir burchagida turib jonli efir orqali dunyoning boshqa bir qismidagi voqealarga guvoh bo'lish mumkin. Bundan tashqari, ingliz tilini o'rganishda o'rganuvchilar 4 xil mahorat(skill) larga ega bo'lishlari kerak. Bular so'zlashuv, o'qish, tinglash va yozish mahoratlaridir. Bu jarayonlarda sun'iy intellekt dasturlari judayam katta yordam berishi mumkin, agarda ularni munosiblaridan foydalanilsa. So'zlashuv mahoratini oshirishda sun'iy intellekt bilan istalgan tilda muloqot qilish, nutqda uchraydigan grammatik va talaffuz qilishga doir muammolarni aniqlash va bartaraf etish mumkin. Yozish mahoratida esa u orqali

so'zlarning tarjimalari va ma'nolarini bilish, essay strukturalari va turlari to'g'risida ma'lumot olish mumkin. O'qish mahoratini yuksaltirishda sun'iy intellekt orqali inglizcha kitoblar va jurnallar topish, va qanday qilib bu mahoratni puxta egallash haqida foydali bilimlarni egallash mumkin. Tinglash mahoratini oshirishda esa aqlli dasturlar orqali ingliz tilidagi podcast va musiqalar eshitish, bu mahoratni shakllantirishga oid darsliklar olish mumkin.

Sun'iy intellekt ko'plab foydali xususiyatlarga. Hamda bugungi kunda foydalanuvchilar uchun eng tezkor va hech qanday maoshlarsiz ishlaydigan yordamchiga aylanib bormoqda. Ammo uning ham ba'zi bir salbiy tomonlari va ta'sirlari mavjud. Misol uchun dangasalikni keltirib chiqarishi mumkin. Bunda aksariyat hollarda o'quvchilar uyga vazifalarini o'zlari bajarmasdan sun'iy intellekt yordamida o'zlari mavzularni o'zlashtirmasdan bajarib kelmoqda. Bundan tashqari, aqlli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalari insonlar uchun muhim yordamchiga aylanib borar ekan, ular shaxs omili ishtirok etadigan faoliyatlarni bajarishi va buning natijasida ba'zi insonlar ishsiz qolishi ehtimoli mavjud.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt vositalari insonlar uchun muhim qo'llanma sifatida xizmat qila oladi. Agarda ulardan to'g'ri foydalansa. Bu jarayonlarda ko'plab vaqt va mablag'lar tejalishi va ish va o'qish jarayonlaridagi samaradorlik bir necha barobar oshishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1)<https://cyberleninka.ru> "INGLIZ TILINI CHUQUR O'RGANISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH METODIKASI" K.Y. Zaripov

2)<https://cyberleninka.ru> "ORIJIY TILLARNI O'QITISH VA O'RGANISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING Afzalliklar" Ergashova Gulhayo Sunnatillo Qizi

3) artificial intelligence:ChatGPT